

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

#### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

#### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.  
**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejavochi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizduln</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

**TURKISTONDA MOL-MULK MUSODARASI VA REKVIZISIYA**  
**КОНФИСКАЦИЯ И РЕКВИЗИЦИЯ ИМУЩЕСТВА В ТУРКЕСТАНЕ**  
**CONFISCATION AND REQUISITION OF PROPERTY IN TURKISTAN**

**Abdullayev Zafarbek G'aybullayevich<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Abdullayev Zafarbek G'aybullayevich**

– Namangan davlat universiteti doktoranti.

**Annotatsiya**

*Maqolada, Turkistonda 1917-1924-yillarda aholi mol-mulki musodarasida ya'ni rekvizitsiya va konfiskatsiya ishlarini noqonuniy amalga oshirilganligi, buning natijasida aholining mulkka nisbatan huquqlarini buzilishi, ularni turmush tarzini keskin o'zgarishi, qashshoqlashuv, shu bilan birga ushbu sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni joylardagi ijrosi noqonuniy amalga oshirilganligi ochib beriladi. Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan noqonuniy mol-mulk konfiskatsiyasi va rekvizitsiyasi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanmagan mol-mulk musodarasida va bu jarayonda nazoratsizlik, o'zboshimchalik yoritilgan. Bu fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetganligi, qolaversa, narx-navo (oziq-ovqat mahsulotlari) ning o'sishiga sabab bo'lganligi ko'rsatilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье раскрывается, что конфискация имущества населения в 1917-1924 годах в Туркестане, то есть незаконное осуществление работ по реквизиции и конфискации, в результате которых произошло нарушение прав населения в отношении собственности, резкое изменение их образа жизни, бедности, в то же время незаконное осуществление. Незаконные имущественные конфискации и реквизиции, проводимые советскими властями в Туркестане, конфискация имущества, не указанного в нормативно-правовых документах, и бесконтрольное, произвольное освещение этого процесса. Указывается, что это является нарушением прав и законных интересов граждан, а то, что остается, является причиной повышения цен (на продовольственные товары).*

**Abstract**

*In this article, it is revealed that the confiscation of the property of the population in 1917-1924 years in Turkistan, that is, the illegal implementation of the works of requisition and konfiskatsiya, as a result of which the violation of the rights of the population in relation to property, their sharp change in lifestyle, poverty, at the same time illegal implementation of illegal property konfiskatsiya and requisition conducted by the Soviet authorities in Turkestan, confiscation of property not specified in the normative-legal documents and uncontrolled, arbitrary lighting in this process. It is indicated that this is a violation of the rights and legitimate interests of citizens, and what remains is the reason for the increase in prices (food products).*

**Kalit so'zlar:** Turkiston, konfiskatsiya, rekvizitsiya, mol-mulk, o'ziga to'q aholi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kuch ishlata tuzilmalar, ijroiya qo'mita.

**Ключевые слова:** Туркестан, конфискация, реквизиция, имущество, самодостаточное население, нормативно-правовые документы, силовые структуры, исполнительный комитет.

**Keywords:** Turkestan, confiscation, requisition, property, self-sufficient, population, normative-legal documents, power structures, executive committee.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida xususi mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida bo'lib, mulkdor o'z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin. Ushbu qoida "O'zbekiston Respublikasida Mulkchilik to'g'risida" gi qonuni bilan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yilning 20-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan o'tkazgan ochiq muloqoti chog'ida tadbirkorlarga yaratilayotgan bunday qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi sub'yektlar keskin ko'payganligi, avvaldan ishlayotganlari esa faoliyatini kengaytirayotganligi, oxirgi besh yilda tadbirkorlar soni qariyb 3 baravar oshganligi, ko'p ishbilarmonlar o'z biznesini butun mamlakat miqyosida kengaytirib, minglab ish o'rinlari yaratib, nufuzli yirik kompaniyalarga aylanganligi, ichki va tashqi bozorda o'z nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshlaganligini ta'kidlab o'tdi [1.]. Jahondagi ko'plab davlatlar tajribasidan, qolaversa, o'zimizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalaridan ma'lumki, huquqiy me'yoriy hujjatlarga amal qilish va huquqbuzarlikka nisbatan ko'riladigan choralar alohida va muhim o'rin tutadi. Respublikamizda me'yoriy-huquqiy

## TARIX

hujjatlar va ularning joylardagi ijrosi muhim hisoblangani holda ularning tarixini o'rganish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, 1917-1924-yillarning davriy chegarasida Turkistonda qabul qilingan me'yori-huquqiy hujjatlar, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni tahlil qilindi. Ushbu vaqt oralig'ida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni hududlardagi ijrosi, xususan mol—mulk musodarasida (rekvizitsiya, konfiskatsiya), huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda faoliyati, soliq tizimi, solishtirish, qiyoslash usullari orqali yoritishga harakat qilingan.

Sovet hokimiyati yillarida Turkistonda 1917-1924-yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'g'risida bir qator olimlarning ilmiy ishlarida, xususan yoritilayotgan mavzuga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning bajarilishiga to'xtalib o'tilgan. Masalan, I.Hayitmetovning "Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki odimlari", A.Mingnorovning "Turkistondagi milliy ozodlik harakati masalalari davr milliy matbuotida (1917-yil fevral 1918-yil o'rtalari)", M.To'rayevaning "O'zbekistonda madaniy hayot: muammo va oqibatlar (1920-1940 yy)", O'Abdullayevning "O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv tizimi va ilk davlatchilik tarixshunosligi (XX-XXI asr boshlari)", I.Haydarovning "o'zbekistonda iqtisodiy kengashlar faoliyati (1917-1934 yy)", A.Yermetovning "Turkiston ASSR da nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni", D.Kamalovning "Turkiston ASSR sud tizimi tarixi (1917-1924 yy)" mavzulari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarida sohaga oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosiga to'xtalangan. Biroq, Turkistonda (1917-1924 yy) me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarni o'rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o'rganish va ob'yektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Sovet hokimiyati dastlabki yillarida mahalliy aholidan mol-mulklarini tortib olish, olingan mol-mulklarni aholining kam ta'minlangan qatlamlariga, yangi tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga, hayriya ishlariga hamda kuch ishlatar tuzilmalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga berish maqsadida rekvizitsiya (mulkni haq to'lab majburiy ravishda davlat egaligiga to'la yoki vaqtincha foydalanish uchun olish) va konfiskatsiya (xususiy kishilarga qarashli mol-mulklarni batamom yoki qisman davlat ixtiyoriga o'tkazish, musodara qilish) ishlari olib borildi. Olib borilgan bu harakatlar, ya'ni rekvizitsiya va konfiskatsiya maqsadga muvofiq emas, ya'ni 1919-yil 28-oktabrda qabul qilingan "Rekvizitsiya va konfiskatsiya to'g'risida" gi Nizomga zid bo'lsa-da, aholining u yoki bu qatlamiga buni qaytarishda ham sinfiylik nuqtai nazari yoki "sotsialistik jamiyat" manfaati ustuvorligi jihatidan yondashilganligi arxiv materiallarida o'z aksini topgan. Ko'zlangan maqsad bitta, qaysi yo'l bilan bo'lmasin mol-mulkni konfiskatsiya yohud rekvizitsiya qilish orqali qo'lga kiritish bo'lib, ushbu harakatni amalga oshiradigan davlat hokimiyati yoki kuch ishlatar tuzilmalarning bu borada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi, tajribasi va layoqati umuman ahamiyat kasb etmagan. Boz ustiga dastlabki yillarda rekvizitsiya va konfiskatsiya qilish bilan nafaqat markaziy yoki joylardagi boshqaruv tizimi, balki harbiy-siyosiy tizimda ishlovchilar ham shug'ullanishlari natijasida qo'pol qonunbuzilishi holatlariga yo'l qo'yilgan. Masalan, 1919-yil 15-avgustda Skobelev shahar ijroiya qo'mitasi majlisida rekvizitsiya va konfiskatsiya qilingan mol-mulklar hamda ularni egalariga qaytarish masalasini ko'rib chiqilgan bo'lib, unda Vasilyev va Zaxarovlar bergan arizalariga ko'ra, ularning mol-mulklari o'zlari ularning yo'qligida rekvizitsiya qilinganini, mol-mulkni qaytarish yohud mutanosib ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash bo'yicha berilgan arizalari ijobiy qanoatlantirilmaganligini bildirganlar. Rekvizitsiya va konfiskatsiya qilingan mol-mulklarni egalariga qaytarilmaslik sababi qilib, ularning "o'ziga to'qligi" ko'rsatilgan. Hattoki, rekvizitsiya qilingan mol-mulklar mansabdor shaxs yohud ma'lum bir organ uchun zarurligi aniqlansa, hech qanday me'yoriy hujjat yoki mulk egasining roziligisiz o'zlashtirilgan.

Binobarin, rekvizitsiya va konfiskatsiya qilingan mol-mulklar, xususan pianino, velosiped, omoch, ot arava, uy hayvonlari, xo'jalik buyumlari, dehqonchilik uchun foydalanilayotgan yer, pul

va boshqalarning aksariyati o'z egalariga qaytarilmagan. Masalan, fuqaro Burovtsev arizasida o'ziga tegishli velosipedni rekvizitsiya qilangani va uni qaytarish bo'yicha bergan arizasiga, velosipedni ijroiya qo'mitasi tomonidan doimiy foydalanish maqsadida qaror qabul qilinganligi javob sifatida bildirilgan.

Birgina, Skobelev shahar ijroiya qo'mitasi aholidan konfiskatsiya va rekvizitsiya qilingan mol-mulklarni egalariga qaytarish yuzasidan qilingan murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha o'tkazilgan majlisda, umumiy hisobda 19 nafar fuqarolarning mol-mulki rekvizitsiyasi va konfiskatsiyasi bo'yicha arizasi ko'rib chiqilgan, biroq ularning birortasi ham qanoatlanirilmagan [3.27.].

Mol-mulk konfiskatsiyasi va rekvizitsiyasini amalga oshirish maqsadida aholi orasidan "o'ziga to'q" fuqarolar aniqlanib, tegishli ijroiya qo'mitaning qarorlariga asosan ma'lum bir summa miqdorlari hamda to'lash muddatlari belgilab qo'yilgan bo'lib, to'lovni muddatida va to'liq amalga oshirish kuch ishlatar tuzilmalar orqali nazoratga olingan.

Kirill-Lotin & Lotin-Kirill, [17.03.2022 12:34]

Masalan, Eski Marg'ilon ijroiya qo'mitasining 1918-yil 10-iyundagi majlisida "o'ziga to'q" lardan 1250000 so'm undirish qaroridan kelib chiqib, 50000 so'mni quyidagi o'ziga to'q fuqarolarning har biridan 10000 so'mdan undirish belgilangan:

1. Oxunboboyev Dadaxon
2. Fayziboyev Sa'dulla qori
3. Abdusalilov Toshmamatmaxsum
4. Ahmadboyev Muhammadiminboy
5. Yoqubov Naim

Yuqoridagi ismi - sharifi qayd etilgan, o'ziga to'q fuqarolar belgilangan 10000 so'mdan mablag'ni zudlik bilan topshirishni nazorat qilish militsiya boshlig'i tomonidan yetkazilgan [4.72.].

Konfiskatsiya va rekvizitsiya ishlari aholining yashash tarzi, moliyaviy imkoniyatlari inobatga olinmay, me'yoriy-huquqiy hujjatsiz ijro etilishi aholining huquqlari poymol etilishi bilan birga, bozorlarda narx-navo keskin oshib ketishi, ayrim iste'mol mollarini tanqis bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Ba'zan rekvizitsiya uchun berilgan tavsiyalar konfiskatsiya qilish bilan yakuniga yetgan. Masalan, (1918-yil 22-noyabr) Eski Marg'ilon militsiya boshlig'i fuqaro Muxsinov ixtiyoridagi 17 dona biton kerosin, 2 pud qandni, shuningdek, Abdullajon Usta Qo'chqorov ixtiyoridagi 2 biton kerosinni rekvizitsiya qilish so'ralgan bo'lsa-da, deputatlar kengashi yuqorida qayd etilgan mahsulotlar egalari tomonidan "qasddan yashirilgan" deb topib, ularni konfiskatsiya qilish yuzasidan qaror qabul qilgan [4.163.].

Olib borilgan rekvizitsiya va konfiskatsiya chora-tadbirlari aksar hollarda yo'l-yo'lakay, o'z nazoratiga ega bo'lmagan holda amalga oshirilgan. Masalan, 1918-yil noyabr oyida Ashxobod fronti shtabi farmoyishiga ko'ra, zudlik bilan konfiskatsiya qilish maqsadida joylardagi aholida mavjud otlarni hisob-kitob qilishga deputatlar kengashidan Shelomayev, harbiy garnizondan Pavlovlar safarbar qilingan. Shelomayev va Pavlovlar O'zgan volostiga kelib, ikki kun davomida Qoradehqon va O'zgan qishloqlarida otlarni ro'yxatga kiritish o'rniga, o'zlaridagi qurollari orqali aholiga po'pisa qilib, boyu kambag'allardan pul undirishga tushganlar. Sovet hokimiyati vakillarining bunday sa'y-harakatlaridan norozi bo'lgan aholi otlar konfiskatsiyasi uchun ularni ro'yxatga kiritish maqsadida kelgan Shelomayev va Pavlovlarni komissar Sysoyev boshchiligida hibsga olib, tintuv qilganlarida, yonlaridan aholidan yig'ib olishga ulgurgan 19000 so'm pul mablag'lari chiqqan [2. 9.].

Yuqoridagi holatdan ko'rinib turibdiki, rekvizitsiya va konfiskatsiya qilish bilan nafaqat markaziy yoki joylardagi boshqaruv tizimi, balki harbiy-siyosiy tizimdagilar ham shug'ullanishgan. Xatto, amalga oshiriladigan rekvizitsiya va konfiskatsiya ishlarini chiqarilgan Nizom, buyruq, qaror va farmoyishlarda ham aks ettirilib, bu sa'y-harakatlarga o'ziga xos "huquqiy maqom" berilgan. Masalan, 1919-yil 8-aprelda Farg'ona fronti qo'mondoni Safonov tomonidan "Farg'ona fronti xo'jalik bo'limi shtabi Nizomi" imzolani, unda qo'shinlarni ta'minoti yuzasidan, favqulodda holatlarda, ayrim maxsus vakolatli vakillar ishtirokida rekvizitsiya qilish huquqi qayd etilgan. Mazkur "Nizom" da faqat "dushman va boylarni" mol-mulki konfiskatsiya qilinishi, rekvizitsiya va konfiskatsiyani amalga oshirishda mahalliy kengashlarga tayanilishi belgilangan.

## TARIX

Kirill-Lotin & Lotin-Kirill, [17.03.2022 12:34]

Masalan, Eski Marg'ilon ijroiya qo'mitasining 1918-yil 10-iyundagi majlisida "o'ziga to'q" lardan 1250000 so'm undirish qaroridan kelib chiqib, 50000 so'mni quyidagi o'ziga to'q fuqarolarning har biridan 10000 so'mdan undirish belgilangan:

1. Oxunboboyev Dadaxon
2. Fayziboyev Sa'dulla qori
3. Abdujalilov Toshmamatmaxsum
4. Ahmadboyev Muhammadiminboy
5. Yoqubov Naim

Yuqoridagi ismi - sharifi qayd etilgan, o'ziga to'q fuqarolar belgilangan 10000 so'mdan mablag'ni zudlik bilan topshirishni nazorat qilish militsiya boshlig'i tomonidan yetkazilgan [4.72.].

Konfiskatsiya va rekvizitsiya ishlari aholining yashash tarzi, moliyaviy imkoniyatlari inobatga olinmay, me'yoriy-huquqiy hujjatlarsiz ijro etilishi aholining huquqlari poymol etilishi bilan birga, bozorlarda narx-navo keskin oshib ketishi, ayrim iste'mol mollari tanqis bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Ba'zan rekvizitsiya uchun berilgan tavsiyalar konfiskatsiya qilish bilan yakuniga yetgan. Masalan, (1918-yil 22-noyabr) Eski Marg'ilon militsiya boshlig'i fuqaro Muxsinov ixtiyoridagi 17 dona biton kerosin, 2 pud qandni, shuningdek, Abdullajon Usta Qo'chqorov ixtiyoridagi 2 biton kerosinni rekvizitsiya qilish so'ralgan bo'lsa-da, deputatlar kengashi yuqorida qayd etilgan mahsulotlar egalari tomonidan "qasddan yashirilgan" deb topib, ularni konfiskatsiya qilish yuzasidan qaror qabul qilgan [4.163.].

Olib borilgan rekvizitsiya va konfiskatsiya chora-tadbirlari aksar hollarda yo'l-yo'lakay, o'z nazoratiga ega bo'lmagan holda amalga oshirilgan. Masalan, 1918-yil noyabr oyida Ashxobod fronti shtabi farmoyishiga ko'ra, zudlik bilan konfiskatsiya qilish maqsadida joylardagi aholida mavjud otlarni hisob-kitob qilishga deputatlar kengashidan Shelomayev, harbiy garnizondan Pavlovlar safarbar qilingan. Shelomayev va Pavlovlar O'zgan volostiga kelib, ikki kun davomida Qoradehqon va O'zgan qishloqlarida otlarni ro'yxatga kiritish o'rniga, o'zlaridagi qurollari orqali aholiga po'pisa qilib, boyu kambag'allardan pul undirishga tushganlar. Sovet hokimiyati vakillarining bunday sa'y-harakatlaridan norozi bo'lgan aholi otlar konfiskatsiyasi uchun ularni ro'yxatga kiritish maqsadida kelgan Shelomayev va Pavlovlarni komissar Sysoyev boshchiligida hibsga olib, tintuv qilganlarida, yonlaridan aholidan yig'ib olishga ulgurgan 19000 so'm pul mablag'lari chiqqan [2. 9.].

Yuqoridagi holatdan ko'rinib turibdiki, rekvizitsiya va konfiskatsiya qilish bilan nafaqat markaziy yoki joylardagi boshqaruv tizimi, balki harbiy-siyosiy tizimdagilar ham shug'ullanishgan. Xatto, amalga oshiriladigan rekvizitsiya va konfiskatsiya ishlarini chiqarilgan Nizom, buyruq, qaror va farmoyishlarda ham aks ettirilib, bu sa'y-harakatlarga o'ziga xos "huquqiy maqom" berilgan. Masalan, 1919-yil 8-aprelda Farg'ona fronti qo'mondoni Safonov tomonidan "Farg'ona fronti xo'jalik bo'limi shtabi Nizomi" imzolanib, unda qo'shinlarni ta'minoti yuzasidan, favqulodda holatlarda, ayrim maxsus vakolatli vakillar ishtirokida rekvizitsiya qilish huquqi qayd etilgan. Mazkur "Nizom" da faqat "dushman va boylarni" mol-mulki konfiskatsiya qilinishi, rekvizitsiya va konfiskatsiyani amalga oshirishda mahalliy kengashlarga tayanilishi belgilangan.

Turkistonda amalga oshirilayotgan barcha rekvizitsiya va konfiskatsiya ishlariga "qonuniy tus berishga harakat qilib", olib borilayotgan chora-tadbirlarga "inqilob" ruhiyati singdirilgan. Rekvizitsiya va konfiskatsiya ishlari shu darajada kengaya borganki, amalda bu o'ziga to'qlarnigina emas, o'rta hol yashayotganlar mol-mulkiga ham davlatning "ko'z olaytirishi" bo'lib xizmat qila boshlagan. Masalan, 1918-yil 26-noyabrda Turkiston xalq maorifi komissarligi o'lkadagi barcha uezd-shahar xalq ta'limi bo'limlariga ko'rsatma xati yuborib, unda hozirgi paytda joylarda yangi maktablar qurish imkoniyati yo'qligini qayd etgan. Ayni paytda sovet hokimiyati siyosatiga moyil o'quvchilarni o'qitish, maktablar sonini kengaytirish davr talabiga aylangan bir paytda "inqilobiy imkoniyatdan keng foydalanib kimga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar va kim tomonidan band qilinganiga qaramay, [joylardagi] yaroqli binolarni rekvizitsiya qilish zarur" deb qayd etilgan. Mazkur buyruqda joylardagi xalq ta'limi va millatlar ishi bo'limlariga imkoniyatlaridagi – vakolatlaridagi barcha hokimiyatni ishga solib, ijroiya qo'mitalari orqali o'quv binolarini imkon darajasida

ko'paytirishlari lozimligi bildirilgan. Buyruqda rekvizitsiya qilingan - maktabga mo'ljallangan binolarni isitish, oynak va eshiklarini moslash zarurligiga ham e'tibor qaratilgan [5.25.]

#### XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, rekvizitsiya va konfiskatsiya qilish orqali sovet hokimiyati o'z manfaatlarini amalga oshirib, boshqaruv tizimidagi bolsheviklar nima yetishmasa, qaysi mahsulotga zarurat bo'lsa, xususan, oziq-ovqat mahsulotlarimi, musiqa asboblari, otlarmi, ot aravami ... hamma narsani mol-mulk egalariidan tortib olish: suv-tekinga xarid qilish yoki hammasini "inqilob manfaatlari" yo'lida konfiskatsiya va rekvizitsiya qilish orqali amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topganlar.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 20-avgust kungi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqotidan (From the speech of President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev with the entrepreneurs of our country on August 20, 2021) (Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев 2021-йил 20-август кунги мамлакатимиз тadbirkorlari bilan ochiq muloqotidan (Из выступления Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева с предпринимателями нашей страны август)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Farg'ona viloyat boshqarmasi, 1-fond, 1A-ro'yhat, 50-ish, 9 varaq va orqasi. (Fergana regional department of archives of the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan, fund 1, list 1A, case 50, 9 pages and back)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyat boshqarmasi, 111-fond, 1-ro'yhat, 51-ish. (Archive of the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan Fergana regional management, fund 111, list 1, case 51.)
4. FVDA, 121-fond, 1-ro'yhat, 48-ish. (FVDA, fund 121, list 1, case 48.)
5. FVDA, 83-fond, 1-ro'yhat, 2-ish. (FVDA, fund 83, list 1, case 2.)

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)